

FINLANDIYA TA'LIMINI O'ZBEKISTON MAKTABLARIDA TADBIQ
QILISHNING PIROVARD MAQSADLARI

Karimova Zilola Hamrobojevna

Navoiy viloyati Nurota tumani

19-maktabning Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mamlakat kelajagi uning ta'lim tizimi darajasi bilan belgilanadi. Geografiya inson hayotida muhim ahamyatga ega bo'lgan fanlardan sanaladi. O'quvchilarning geografiya fanini o'zlashtirishi, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi, shuningdek, tarbiya jarayonlarida ta'lim tizimi rivojlangan davlatlardan biri Finlandiya ta'lim tizimini tahlil qilgan holda yo'lga qo'yish juda ahamiyatlidir. Ushbu maqolada o'zbekiston maktablarida geografiya fanini o'qitish jarayonida Finlandiya ta'lim tizimiga xos usullardan foydalanib darslarni tashkil qilishga e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim , metod, pedagogik-psixologik metodlar, tatqiqot metodlar, taqqoslash metodlari, statistik tahlillar, sog'lom va erkin muhit.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorida keltirilgan: Bosh vazir o'rinbosari B.A. Musayev va Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi:

Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-yanvarga qadar Finlandiyaning ta'lim sohasidagi tajribasini, shu jumladan o'quv dasturlari, darsliklari, o'qitish metodikalari va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini xorijga xizmat safarini tashkil etgan holda o'rganib chiqsin;

Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda Finlandiyaning ta'lim sohasidagi ijobiy tajribasini O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga hamda Dasturga joriy qilish Bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin. Ushbu bandlarga muvofiq ta'lim tizimini o'rganish, kadrlar malakasini oshirish va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash tizimini o'rganish, Finlandiyaning o'qitish tizimidagi bir qancha yutuqlari va afzalliklarini tahlil qilgan holda milliy o'qitish tizimiga asos tariqasida qayta takomillashtirish kabi asosiy masalalar ko'rib chiqilgan [1].

Ma'lumki, so'nggi paytlarda Finlandiyadagi ta'lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizim ekanligi va mazkur tizimning bunday maqomga erishishda yordam beradigan radikal g'oyalar qanday ishlayotgani haqida fikrlar matbuotda keng muhokama qilinmoqda. Bizning Milliy ta'lim tizimimiz ham bundan mutasno emas.

Finlandiya maktablarida ta'lim tizimi yuqori darajada rivojlangan va katta yutuqlarga erishgan. Hech kimga sir emaski bugungi kunda Finlandiya maktablarida

geografiya o'qitish metodikasi eng yuqori darajada bo'lib, shulardan bitta oddiy misol keltiradigan bo'lsak, Finladiyada fandan yuqori va past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bir biriga yordamchi yoki o'quvchi bir biriga ustoz metodi yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak juft yoki toq metodida o'qitish ham ommalshgandir. Juft metodi bu yuqori va past o'zlashtiruvchi ikkita o'quvchiga dars o'tiladi va past o'zlashtiruvchi o'quvchi tushunmagan qismini o'quvchining tushunishi oson bo'lgan atamalari bilan yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchi past o'zlashtiruvchi o'quvchiga tushuntiradi. Toq usul esa past o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan fan o'qituvchisi shug'ullanadi, undan keyin maktabning to'garak o'tuvchi o'qituvchisi shug'ullanadi va ohirgi bosqichda esa past o'zlashtiruvchi o'quvchining ota onasi shug'ullanib boshqa sinfdagi tez o'zlashtiruvchi o'quvchilarga yetib olishlariga yordam berishadi. Bu ikkita metodning samarali natija berishida bo'lib, bir necha yillardan beri sinalgan metodlardan biri bo'lib hisoblanadi. O'qituvchilari tamonidan bu metod a'lo darajada o'zlashtirilgan va amaliyotda tatbiq etib kelinmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz bu ulkan tajribalarni o'zimizni ta'lim tizimizga joriy etib, geografiya fanini o'qitishda Finlandiya geografiya metodlarni joriy etish hamda o'quvchi yoshlarni geografiya faniga qiziqishini oshirishdir[2].

Finlandiya so'ngi 30 yil ichida ta'lim tizimida katta islohatlar olib bordi va yutuqlarga erishdi. Finlandiya maktablarida yana bitta metodlardan biri bu, deyarli raqobat yo'q. Ya'ni o'quvchilarga baxo qo'yishda Finlandiyada baxo tizimi mavjudmas. O'quvchilarning qaysinisidir ikki oldi yoki uch oldi va h.k kabi ajratish mavjudmas. Finlandiyada maktab bitiruvchi sinfgacha bo'lgan davrgacha kredit ball tizimi bo'lib har bir o'quvchi masalan matematika fanidan maktab bitirguniga qadr davr ichida 300 kredit ball to'plagan bo'lishga majburdir. Ikkinchi raqobatning mavjudmasligiga yana bitta misollardan bittasi ularda forma kiyish yoki qandaydir kiyinishga bo'lgan talabning mavjudmasligidir. Finlandiyada har bir o'quvchi o'z hohishiga ko'ra kiyinishi va asosiysi imkoniyati darajasida kiyina olishidir. Bulardan tashqari hamma maktablari bir xil ta'mirlangan va jihozlangan. Finlandiya maktablarida sinf xonalarida deyarli shovqun bo'lmaydi.

O'quvchilar bir biri bilan taqqoslanmaydi. Agarda o'quvchi o'zlashtira olmasa u bilan fan o'qituvchisi ko'proq shug'ulanadi[3].

So'ngi yillarda Finlandiya Xalqaro PISA reytingida matematika fanidan 5-o'rinni egallab kelmoqda. Finlandiya maktablarida dars soatlar kam bo'lishiga qaramasdan o'zlashtirish yuqori darajada. Finlandiya maktablariga bolalarni 7 yoshidan qabul qilishadi. Ularni fikricha bu eng to'g'ri qaror. Finlandiya maktablarida ta'lim quyi va yuqori bosqichlarda olib boriladi. Quyi bosqich boshlang'ich ta'lim (7-12 yoshlar) 1-sinfdan boshlab 6-sinfgacha bo'lgan sinflarni hamda yuqori bosqich yuqori sinf o'quvchilari 7-9 sinf (13-16 yoshlar) o'quvchilarini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinflarida umumiy matematika fanining uchdan ikki qismi o'qitiladi. Asosiy darsni boshlang'ich sinf o'qituvchisi amalga oshiradi. Dars berish jarayonida Finlandiya boshlang'ich sinf O'qituvchilari o'zlarining tajribalaridan va shaxsiy metodlaridan kelib

chiqib asosiy darsni beradi. Finlandiya o'qituvchilarning asosiy maqsadi o'quvchini qiziqtirish va natijaga erishish hisoblanadi.[3].

Finlandiya ta'lim tizimida geografiya fanining o'rni va ta'lim samaradorligi bir jihati bo'lsa, yana bir tomondan mavzuning ba'zi muammolari, kelajakda rivojlanishiga tahdid solib turgan ayrim jihatlari ko'rib chiqiladi. Finlandiya ta'lim tizimida geografiya, biologiya, fizika, kimyo tabiiy fanlari bir birlariga bog'liq holda bitta fan sifatida olib boriladi. O'rta maktablarda geografiya ta'lim mazmuni bo'yicha aniqlangan mavzular quyidagilardan iborat:

- "Yer - insonning uy sayyorasi",
- "Yevropa",
- "Dunyo va Finlandiya"
- "Umumiy muhit".

Ushbu mavzular ro'yxatdagi muammolar bilan izohlandi. "Nima?" va "qanday?" o'quvchilar o'rganishi va hal qilishi mumkin bo'lgan savol namoyish etiladi. Bu turdagi olib boriladigan darslarning ijobiy jihatlari: "idrok etish", "tan olish", "tasvirlash", "muayyan masalalarni tasvirlash", "solishtirish", "tahlil qilish va tushuntirish", "geografik bilimlarni qo'llash" va "kichik tadqiqotlarni rejalashtirish va o'tkazish". O'quvchilarni o'z bilim tajribalari va bilim ko'nikmalaridan kelib chiqan holda bajarishadi.[2]

O'zbekiston maktablarida ijtimoiy-iqtisodiy geografiyani o'rganish bosqichida o'quvchilar faqat darslikda keltirilgan nazariy bilim olishlari bilan chegaralanib qolishmoqda. Hozirgi kunda bizning davlatda geografiya darslarini rivojlantirish orqali davlatni ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini rivojlatirish jahon talablariga javob bera oladigan darajaga olib chiqish bilan bir qatorda iqtisodiy sohalarimizdagi muammo va yechimini kutayotgan masalalarni o'quvchilar e'tiboriga havola qilish, ularni erkin fikrlashga o'rgatish, har bir masala yuzasidan raqobat va munozarali jarayonlarni tashkillashtirish bilan darslarni olib borish, o'quvchilarni kelajakda ishbilarmon yetuk shaxs sifatida shakllanishlari uchun sog'lom muhit yaratish maqsadga muvofiqdir. Darslarda asosan o'quvchilarni psixologik nuqtayi nazardan baholab borish, ularni geografik muhitni shakllantirish maqsadida turli xil metodlarni qo'llash ta'lim tizimini o'zgartirish orqali dars jarayonida faol bo'lishlarini ta'minlash lozim.

Finlandiyada o'quv materiallari matematik ta'limga qiziqadigan va hozirda maktablarda ishlaydigan oddiy o'qituvchilar tomonidan tayyorlanadi. Shuning uchun ular maktablardagi sharoitlarni juda yaxshi bilishadi. Hozirda ikki xil turdagi parallel darsliklardan foydalaniladi. Bu darsliklar bir-biridan biroz farqqilsa ham, barcha o'quv qo'llanmalari umuman o'xshashdir. Barcha darsliklarda muammolar va statistik ma'lumotlarni yechish uchun turli xil materiallar, guruh ishlari va loyihalar uchun g'oyalar mavjud. Ular, shuningdek, asosiy mashqlar to'plamini hamda barcha talabalar uchun qiyinroq topshiriqlarni taqdim etishadi.

Bundan tashqari, geografiyaga qiziqqan o'quvchilar uchun qiyin topshiriqlar to'plami mavjud. O'qituvchilar o'z o'quvchilari uchun darsliklar va boshqa materiallarni tanlash bilan bir qatorda o'qitish metodikasi uchun mas'uldirlar. Shunisi e'tiborga loyiqli, o'quv materiallarining sifati bevosita o'qitish sifatiga teng kelmaydi, chunki o'qituvchi barcha turdagi materiallardan tegishli yoki boshqa usulda foydalanishi mumkin. Agar xohlasalar, ular darsliksiz o'qitishni tanlashi mumkin, ammo bu alternativa kamdan kam qo'llaniladi[4].

Xulosa qilib aytganda, geogradiyani o'qitish bilan shug'ullanadigan Finlandiya o'qituvchilari maktab geografiyasi ta'limini saqlash va yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi butun tayyorgarlikni sinfdan tashqarida amalga oshiradi, qiziqarli o'yinlar izlab topadi va shu jumladan yangicha metodlar kashf qiladi. Bu fin o'qituvchilarni muvaffaqiyatga erishishga asosiy sababchi bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-5085887>.
2. S.A.Abduvohidov, Z.A.G'aniyev. "Geografiya ta'lim metodikasi" SamDU nashriyoti, 2021-328 b.
3. O.A.Mo'minov. "Geografiya ta'lim metodikasi" ,-T.:O'qituvchi, 1986 y.
4. <https://www.infofinland.fi/en/living-in-finland/education/the-finnish-education-system>; Finlandiya o'rta ta'lim maktablarini geografiya fani o'qituvchilari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari.